

TILLAR — DAVR KO‘ZGUSI

T.Habibullayev, SamDU talabasi

Annotatsiya. Maqolada til va uning ijtimoiy mohiyati haqida ma'lumot berilgan. Shuning bilan birga tilning jamiyat hayotida, millat taqdiridagi vazifasi tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: ona tili, millat ruhi, til va dil, ijtimoiy hayot, ma’naviy hayot, milliy til, xalq tili.

Tilning, aynan ona tilining kishi ichki olamining suyanchi ekanligi haqidagi ta’rif-u tavsiflar kunimizda anchayin yoyg‘in. 2003-yilning 21-fevralida Xalqaro ona tili munosabati ila YUNESKOning o‘scha ondagil Bosh direktori Koichiro Masuuro shu fikrni so‘ylagan edi: “Ona tiliga nega bu qadar e’tibor berilmoqda? Shuning uchunki, tillar insoniyat ijodining butun rango-rangliklaridagi benazir ifodasidir. Aloqa, idrok va tafakkur quroli sifatida til, shuningdek, biz dunyoni qay yo‘sinda qurishimizni belgilaydi. O‘tmishimiz, bugunimiz va kelajagimiz o‘rtasidagi aloqani aks ettiradi... Har bir insondagi tug‘ilganidanoq tilning muayyan ta’sirlarini yuzaga qalqishiga, ya’ni keyinchalik ham inson ko‘plab tillarni o‘rganib ham o‘z ona tilini unutmaydi va u til mudom o‘z tili bo‘lib qoladi. Chet tilini bilishlik, bu olamni o‘zgacha ko‘z ila ko‘rish ilo boshqacha usullarni ham tanish demakdir”.

Til shunchalik kuchli quroqliki, u ham bunyodkorlikka, ham vayronkorlikka xizmat eta biladi. Inson tug‘ulibdiki tili chiqqan tilni sevishi, u til bilan ko‘ngil qulfi-kalitini ochadi, muloqot quradi, so‘zlaydi. Ona bizga suti ilo hayot baxsh etsa, ona tilimiz bizga yurtimizni, kentimizni sevishlikni o‘rgatadi.

Ne afsuski kunimizda tilimizga bo‘lgan hurmatsizliklar ortib borayotir, ya’ni o‘z tilimiz qolib “chala-chulpa” boshqa tillardan foydalanib kelayotirmiz. Shu uchunki, so‘z boshida buyuk jadid bobolarimizdan biri Abdurauf Fitratning “Tilimiz” nomli tom yuz yil oldin tilimiz haqida qayg‘urib yozilgan maqolasidan

iqtibos ila boshlashni joiz deb bildim. Turk tili ya’ni davr nazarida tom Turon o’lkasi bo’lganligi uchun hamki umumiy olaroq Turk tili deyilmoqda. Maqolada o’z tilimizdagи chet tildan kirib kelgan so‘zlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul etmasdan ularning muqobil qolibini belgilaylik va yoki turkiylashtiraylik deya yozg‘iradi. Bugun ham shu jumboqli ish emasmi aziz o‘qirman?

Vaholanki, Turkiycha boy til va bu xususida Haztat Mir Alisher Navoiyning bir qancha asarlarida turkiy tilning so‘z turkumlaridagi va morfologik jihatdan boyligini oyna kabi ravshan etib bergenligini hamda Turkiy tilning qashshoq emasligini va shunday deb bilganlarga qadim asarlar ila tanishib chiqishini uqtiradi.

O‘z tilining ravnaqini o‘ylagan Eron shoiri Firdavsiy ham o‘zining “Shoxnoma” asarida Fors tiliga anchayin ta’sir bildirgan arab tiliga kelganda quyidagicha,

Zahir shutur xurdan susi mor,

Arabro ba joyi rasidast kor.

Ki taxti Kayonro ko‘nad orzu,

Tfu,bar tu, charxi gardun tfu!

qichqiradi. Bu so‘zning Turkiychasi bu turur: “Tuya suti bilan ilon eti yeydigan, boshqa qilari bo‘lmagan arabning ishi, shu yerga chiqmishkim, Eron imператорining taxtini dili tusaydir. Ey, shu ishga nedan bo‘lgan qadar tfu senga, tfu!”

Til haqida ma’lum va mashhur asarlar va tushuncha, fikrlar ko‘plab yozilmishtir albatta. Men bir bo‘lajak filolog sifatida shu mavzuga xos bo‘lgan tadqiqot va izlanishlarim sirasiga kirguvchi manbadan so‘z ochishni lozim topdim. Barcha qo‘li bitik olgan va qalb-la o‘qigan o‘qirmanlarga ayon Qirg‘iz va butun Turon o’lkasi yozarmani Chingiz Aymatovning “Fikrlar simfoniyasi” deb nomlaganim Turk tilidan O‘zbek tiliga o‘girayotgan bitikdan “Til koinoti” nomli til hususindagi qarashlaridan namuna keltirsam:

“Her bir halkın dili, kendi halkının dehaları tarafından oluşturulan eşsiz bir hazinedir. Ona karşı gösterilen olumsuz muameleler sadece onun kaybına sebep olur.”

“Har bir xalqning tili o‘z xalqining daholari tomonidan yaratilgan noyob xazinadir. Unga nisbatan salbiy munosabat faqat uning yo‘qolishiga olib keladi”.

Buyuk adib bu qarashlari ila har bir tilga hurmat va e’tiborda bo‘lishlikka chorlaydi va hech bir tilga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lmaslikni so‘zlaydi. Shu jumladan, o‘z ona tilimizning yo‘qolib ketmasigiga doir O‘zbekiston Xalq shoiri Erkin Vohidovning “Ona tilim o‘lmaydi” deb atalgan she’rida ham millat va vatan shoni bo‘lmish tillarni hurmatlash, bilish, o‘rganish va qo‘llashda jiddiy bo‘lmoqlikka chaqiradi.

Tillarga bo‘lgan diqqat e’tiborini va o‘z ona tili ila birkalgda boshqa tillarni sevishni, o‘z ijod maydonidagi tilni Chingiz Aymatov shunday izoh etadi:

Rus tili men uchun ikkinchi ona tilidir. Men uni sa’nat tili, strategik boylikning eng muhim manbai deb bilaman. Bu til o‘zining lingvistik tamoyillari, fikrni har tomonlama ifodalash oson bo‘lgan tillar, paydo bo‘lgan, rivojlangan va o‘tgan bosqichlari jihatidan dunyodagi eng ko‘p so‘zlashuvchi tillardan biridir. Bugungi kun va uning taqdiri. Bu sizning dunyoqarashingizni kengaytiradi va madaniyatning ta’siriga hissa qo‘shadi. Hayot shuni ko‘rsatadiki, bugungi dunyoda mavjud va qo‘llanadigan tillarning ta’sirchanligini oshirish uchun ularga qarshi turmaslik kerak.

Bilasiz, tilimiz ila bog‘liq muammolar qorishiq va og‘riqli holatlari ham bor albatta. Chunonchi, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarimizdagi xatoliklar, tele-dasturlarimizdagi adabiy tilimizga bo‘lgan behurmatliliklar, so‘zlashuv nutqimizdagi so‘z buzilishlar va “chala tillilik”lar, joy nomlari bilan bog‘liq xiyonatlarga qarab tilimizga rahming keladi kishining va shu o‘rinda o‘zbek xalqining ardoqli adibi Erkin A’zamning “Bayramdan boshqa kunlar” asari huddi shu masalalarni ko‘taradi. Yoshlar o‘rtasidagi suhbatlashuv jarayonlarini asosiy uch obraz bo‘lgan Bakir, Bargida va Sapura orqali gavdalantiradi. Tilning og‘zaki qo‘llanilishi jarayonidagi bepisandliklarni zaharxandalik bilan “til buzar”larning yuziga tarsaki tortadi. Bu singari yozarlarimizning asarlari va fikrlari ko‘p va jumladan yana bir zamondosh O‘zbek yigit otaxon shoiri Usmon Azim o‘zining “So‘ng so‘zlar” deya nomlanmish xotirotida so‘zga shunday ta’rif beradi:

“So‘z — dunyoning beshinchi unsuri”.

Shoir demoqchiki, dunyo to‘rt unsurdan ya’ni, “olov”, “suv”, “havo” va “tuproq”dan tashqari “so‘z” ham olam yaralishida o‘rni borligini tarixan va aqlan izoh etmoqqa tirishadi va haqlidir ham. Chunonchi, so‘z uni jamlovchi til bo‘lmasa bu ongli "mavjudot" ne ham qilardi deysiz?

Aziz kishim so‘z ya’ni til badiiyligi qudrati shu qadar kuchliligi sir emas sizga ham. Deymanki, bir narsa va hodisani ifodalamoq uchun oddiy emas, she’riy va nasriy usuldan foydalansak, suhbatdoshimizga ta’sir kuchi ortadi.

Misol o‘laroq, Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning ijodidan kichik tarjima keltirsam va ardoqli adib Chingiz Aytmatovning til haqidagi fikrini yana ham ochiqlasam:

Nemis shoiri Henrich Heynedan

Hamma esnab turdi, quloq solmadi,

Qayg‘umni gapirib bergen vaqtimda.

Meni alqamagan kishi qolmadi,

Qayg‘umni nazmga tergan vaqtimda.

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpondan Rus tilidan O‘zbek tiliga o‘girimi.

1927-yil, Mart.

Herkes esneyip durdu, dinlemedi

Kederimi paylaştığı anımda.

Beni alkışlamayan kişi kalmadı

Kederimi şiir'e dizen anımda.

Şubat 2023 (Fevral)

Kishi tilni sevib muomila qilar ekan, uning uchun ochilmagan qopqa yo‘qdir.

Ijod sohasida ayniqsa maqbuldir. Tilda shirin va aniq so‘zlamoq xususida, Yusuf Xos Hojib “Odobning boshi tildir” deya bekorga tanbehlamagan. Qolaversa, nutqning go‘zalligi, tilning burroligi, lisoniy ifodaning aniqligi inson uchun o‘ziga xos husndir, bu husn oxir-oqibatda jamiyatning, millatning ham husni jamolini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fitrat. “Tilimiz” maqolasi, “Ishtirokiyun” gazetasi, 1919. 12-iyul (132-son)
2. Mahmudov N. Toshkent “Mumtoz so‘z” 2007 “Til tilsimi tadqiqi”, Til nufuzi. “Til siyosati va siyosat tili” 5-bet.
3. Ch. Aytmatov. “Fikrlar simfoniyasi” 2020 Rus tilidan Turk tiliga tarjimon Ibrohim Turkxon, 2020-y.
4. A. Cho‘pon. “Jadidlar adabiyoti namoyandalari”. Tarshima she’rlaridan, 189-bet. “Zabarjad media”, 2022-y.
5. Mahmudov N. “Tilimizning tilla sandig‘I”, “Ajdodu avlodni allalagan til” maqolasi, 3-bet.
6. Maqoladagi Turk tilidagi matnlarni Turk tilidan O‘zbek tiliga, O‘zbek tilidan Turk tiliga Temur Habibullayev o‘girdi.
7. Турбов, А. (2016). Кўшма сўз компонентлари хусусида. Иностранный филология: язык, литература, образование, 1(4), 55-57.
8. Турнизов, Н., & Турбов, А. (2017). Тил бирликларининг нутққа ко"чирилиши масаласи билан "бог" лиқ "ба" зи мулоҳазалар. Иностранный филология: язык, литература, образование, 2(3 (64)), 5-9.
9. Турбов, А. (2019). Қадимги ҳинд тилшунослиги хусусида айрим мулоҳазалар. Иностранный филология: язык, литература, образование, (2 (71)), 21-24.
10. Каримова, С. (2020). Зебуннисобегим шеъриятида бадий санъатлар. Иностранный филология: язык, литература, образование, (4 (77)), 18-22.
11. Каримова, С. (2020). Зебуннисобегим ва моҳларойим нодира шеъриятида тасаввуфий-ирфоний қарашлар талқини. Иностранный филология: язык, литература, образование, (3 (76)), 17-21.
12. Каримова, С. (2020). Машҳур шарқ шоираси зебуннисобегим. Иностранный филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 12-14.